

## **O`QUVCHINING ODOB AXLOQ TARBIYASINI RIVOJLANTIRISHDA MUSIQANING AHAMIYATI**

**Abdullayev Muhitdin Yusupovich,**

**Qarshi davlat universitetining Pedagogika instituti o`qituvchisi**

### **Annotatsiya**

Maqolada o`quvchi ma`naviyatini shakllantirishda musiqaning o`rni va ahamiyati tadqiqotchining bosh mavzusi ekanligi va bu borada olib borilgan tajribalarning natijalari tahlil qilinadi. Shuningdek, musiqaning boladagi xotira, tasavvurni shakllantirish, fikrlash qobiliyatini rivojlanirishdagi o`rni xususida so`z boradi.

**Kalit so`zlar:** Musiqa, o`qituvchi, odob-axloq, tarbiya, uslub, tadqiqot

## **ЗНАЧЕНИЕ МУЗЫКИ В РАЗВИТИИ ЭТИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ ДЕТЕЙ**

**Абдуллаев Мухитдин Юсупович,**

**Преподаватель педагогического института Каршинского государственного университета.**

### **Аннотации**

В статье анализируются роль и значение музыки в формировании духовности детей, основная тема исследователя и результаты экспериментов в этой области. Обсуждается также роль музыки в развитии памяти, воображения и мышления у детей.

Ключевые слова: музыка, педагог, этика, образование, стиль, исследования.

## **THE IMPORTANCE OF MUSIC IN THE DEVELOPMENT OF CHILDREN'S ETHICAL EDUCATION**

**Abdullayev Muhitdin Yusupovich,**

**Teacher of the Pedagogical Institute of Karshi State University**

### **Annotation**

The article analyzes the role and importance of music in the formation of children's spirituality, the main theme of the researcher and the results of experiments in this area. The role of music in the development of memory, imagination and thinking skills in children is also discussed.

Keywords: Music, teacher, ethics, education, style, research

### **Kirish**

Har qancha tebranmasin beshikdagi bolakay sira yig`idan tinmasdi. Yosh holiga ona bo`lgan Nigoraxon aqalli allaning ikki satrini ham bilmasdi. Harqalay Buston momosi beshikka qo`l uzatib alla aytishni boshlashidayoq bolaning yig`isi tindi, beshikning darpardasidan momo bolaning uyquga ketganini ko`rib, allani yanada ko`proq aytaverdi.

*“Alla aytay adiga,*

*Suv keltirsin kadiga,*

*Kadi ipi uzulsin,*

*Kuyov bo`lib suzilsin”.*

Buston momo erinmadi, ko`p alla aytdi. Buning sababini so`rashganlarida esa bola uyquga ketgan bilan, ma`nan uyg`oq. Alladan ozuqa oladi. Musiqa, alladan odob-axloqi o`zgaradi. Darxaqiqat, musiqa ko`ngillarni birlashtirib qolmay, inson ruhiy olamiga ma`naviy ozuqa beradi. Musiqa bilan ulg`aygan bola jinoyatchi emas, ma`naviy komil inson bo`lib yetishadi. Birgina allani ulug`lagan momolarimiz borki, musiqaning bola rivojida ijobiy ta`siri borligini isbotlaydi. Eng muhim miqdorida yoshligidan o`quvchidagi fikrlash, xotira, tasavvurni shakllantirishi ham bor gap.

Musiqa kayfiyat holatini ifodalashda keng imkoniyatga ega. Inson kayfiyati murakkab hissiyot bo`lib, u hech narsa bilan bog'lanmagan. Kayfiyat umumlashgan xususiyatga ega bo`lib, undan ikkilamchi tomonlar chiqarib tashlanadi va insonning vogelikka bo`lgan tuyg'u munosabatini belgilaydigan eng muhim tomonlari ajratib olinadi. Musiqaning kuch-qudrati Shundaki, u shodlanish, qayg'urish, hayol surish, bardamlik, jasurlik, tushkunlik va Shunga o'xshash inson ruhiy holatlarini xususiy va umumiyligi tarzda o'zaro bog'liqlikda, bir-biriga singib ketishida namoyish qila oladi.

### **Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi**

Darhaqiqat, musiqa kayfiyat holatini ifodalaydi. Zotan, inson kayfiyati murakkab hissiyot bo`lib, u hech narsa bilan bog'lanmagan. Musiqaning kuch-qudrati shundaki, u shodlanish, qayg'urish, hayol surish, bardamlik, jasurlik, tushkunlik va shunga o'xshash inson ruhiy holatlarini xususiy va umumiyligi tarzda o'zaro bog'liqlikda, bir-biriga singib ketishida namoyon bo`ladi. Shundan, musiqaning bola hissiyoti va intilishiga, mazmuniga va his etishiga katta ta`sirini hisobga olganda, haqqoniy va voqeylekni to`g`ri aks ettirgan musiqali asardan o'rinni foydalanish ahamiyatlidir. Musiqiy san'at uchun odamning fikrlash va ifodalash hissiyoti asoslidir. Musiqa tovush bilan hamohanglik rivojida dastlab nutq va raqs bilan bog'liq. Musiqa mehnat harakati ritmi bilan moslashib, bir maqsadga intilayotgan kishilarni bir-birlariga birlashtiradi. Musiqiy tarbiya o`quvchida erta yoshdan boshlanishi kerak. Musiqa bola qalbida kuchli emotsiyonlarni tuyg`u uyg`otadi. Musiqa yordamida uning badiiy idroki o'sib, hissiyotini yanada boyitib boradi.

o`quvchida musiqiy idrokini rivojlantirmay ularning musiqaga mehr-muhabbatini yetarli darajada qiziqtirmay turib, har tomonlama jismoniy, ma`naviy boy va boshqa sifatlarni tarbiyalab bo`lmaydi.

## **Мулоҳаза ва таклифлар**

Musiqaning bola hissiyoti va intilishiga, uning mazmunini tushunish va his etishga katta ta'sirini hisobga olganda haqqoniy va vogelikni to‘g‘ri aks ettirgan musiqiy asardan o‘rinli foydalanish alohida muhim o‘rin tutadi. Shunday ekan, o`quvchini musiqiy-estetik tarbiya uchun quyidagilarga rioya qilish kerak:

- Musiqiy-estetik faoliyatni atrof muhit hamda zamon bilan hamohangligi;
- Musiqaning san’at sifatida o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish;
- o`quvchining musiqiy rivojlanishlarida uzviylikni ta’minlash;
- o`quvchini quvnoq, g‘amgin, yengil va vazmin musiqani tinglashga past va yuqori registrni eshita olishga, musiqa tilini tushunishga, past ovozli va baland ovozli musiqaga mos chapak chalish orqali musiqa dinamikasini ajratishni o‘rgatish;
- kattalar ketidan musiqani taqlid qilib, intonatsion mos ravishda qaytara olish;
- musiqiy rahbar boshchiligidagi raqs harakatlarini bajarish;
- kompozitorlar, musiqiy cholg‘u asboblari haqida gapirib berish orqali o`quvchida musiqa san’atiga muhabbat uyg‘otish;
- o`quvchini musiqani diqqat bilan tinglashga o‘rgatish, yengil va oson xalq qo‘sishiq hamda kuylarini musiqasiga mos ritmik harakatlar bajarib ijro etishga o‘rgatish. Musiqa sur’atiga mos chapak chalish yoki oyoq bilan jo‘r bo‘lish orqali qo‘sishiqni ijro eta olish.

### **Avvalo, musiqiy tarbiyaning quyidagi vazifalari bor:**

1. Musiqaga muhabbat va qiziqishni o‘stirish.
2. O`quvchining musiqiy tajribasini boyitish (musiqiy asarlar asosida).
3. O`quvchini oddiy musiqiy tushunchalar bilan tanishtirish, musiqa

tinglash, kuylash, musiqiy ritmikasi borasida malakalarni rivojlantirish.

4. O`quvchida emotsional hisni shakllantirish. Ularda lad hissi, ritm tuyg`usini o`stirish va harakatni o`tirish.

5. Musiqiy didni o`stirish (musiqiy taassurotlar asosida).

6. O`quvchida ijodkorlikni o`stirish (barcha faoliyatlar asosida).

Xulosa o`rnida, musiqa o`quvchining salomatligiga va ularning jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, perinatal davrda tengdoshlariga qaraganda klassik musiqaga biriktirilgan o`quvchi o'tirishga, suhbatlashish va gapirishga kirishadilar. Musiqa tovushi eshitilganda, inson miyasi musiqiy yozuvlarga mos keladigan tovushlarni qabul qiladi. Shu bilan birga, ba'zi bir nerv hujayralari tovush to'lqinlariga reaktsiyaga kirishadi, buning natijasida asab kuchlanishini yo'qotish, tinchlantirish. Musiqani bolaning ruhiga ijobiy ta'siri ham, bu dunyoga nisbatan sezgirlik va hissiy oshkorlikni keltirib chiqaradi. Keyinchalik chaqaloq atrofdagi odamlarning kayfiyatini baholab, ular bilan o'zaro munosabatlarni sezilarli darajada engillashtiradigan vakolatga ega bo'ladi.

### Adabiyotlar ro`yxati:

1. Qodirov R. G'. "Musiqa psixologiyasi" T: Musiqa. 2005- yil 7-b

2. Sharipova G., Yakubova Sh. Maktabgacha ta'lif muassasalarida musiqa o'qitish metodikasi Toshkent-Cho'lon nashriyoti -2007 yil

3. Bola ma'naviyatini shakllantirish. (Yo'ldoshev J.tahriri ostida.) – Toshkent: Sharq, 2000. – 301 bet.

4.o`quvchini tarbiyalashda oila, mahalla, mакtab hamkorligi konsepsiysi. –Toshkent: Rahbar, 1998. –15 b.

5. Soipova D. Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi. Toshkent Musiqa nashriyoti 2009 yil

6. Soliyev N Musiqa savodi ailifbosi T.:G'ofur G'ulom 2003 y

7. Umarov.E. Estetika T.: "O'zbekiston", 1995y., -210–bet

8. Ushinskiy K.D. Sbor, soch. —M.: L., 1988.

9. Shimanovskiy K. Tanlangan maqola va xatlar. L., 1993, 80–bet.